

TARIXIY TOPONIMLARNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI

(A.Navoiyning “Xamsa” dostoni misolida)

Hamraqulova Durdona - Qarshi DU magistri

Annotatsiya: Maqolada Alisher Navoiyning “Xamsa” dostoni matnidagi toponimlarning leksik-semantik xususiyatlari tadqiq etilgan. Toponimlar tarixan mavjud bo‘lgan nomlar va afsonaviy (to‘qima) nomlar singari ikki guruhga bo‘lib o‘rganilgan. Bundan tashqari, toponimlar qaysi obyektning nomini anglatishiga ko‘ra oykonim, oronim, gidronim, xoronim, astionim, ekkлизионим singari guruhlarga ajratilib, ularning lug‘aviy ma’nolari izohlangan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Xamsa”, doston, toponim, tarixiy toponim, afsonaviy toponim, oykonim, oronim, gidronim, xoronim, astionim, ekkлизионим.

O‘zbek tilshunosligida tarixiy onomastika bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan. S.N.Fazliddinova “Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi onomastik birliklar tahlili” nomli maqolasida doston matnidagi toponimlarni tahlilga tortadi. Toponimlarni xoronimlar, oykonimlar sifatida ikkiga ajratadi. Xoronimlarga *Movoraunnahr Xo’tan*, *Dashti Qipchoq*, *Haybar* singari katta hududiy birliklar nomini kiritgan bo‘lsa, oykonimlarga *Adan*, *Kashmir*, *Os*, *Shom* singari aholi yashash maskanlari nomini kiritadi. Maqolada turli tog‘ nomlari (*Qof – Ko’hi Qof*), devor nomi (*Saddi Iskandariy – Iskandar devori*), orol nomi (*Bahrayn*), qo‘rg‘on nomi (*Haybar*), qal’a nomi (*Barbariy*), bog‘ nomi (*Jahonoro*, *Eram*) kabilar alohida guruh ajratib o‘rganilganini ko‘ramiz¹.

O‘zbek tilshunosligida tarixiy onomastika bo‘yicha bir qator monografik tadqiqotlar amalga oshirilgan. N.Mo‘minova, F.Rajabov va R.Saydullaeva larning tadqiqotlar² aynan shu masalaga bag‘ishlangani bilan e’tiborga molikdir. N.Mo‘minova Salohiddin Toshkandiyning “Temurnoma” tarixiy asari antroponimlari, F.Rajabov “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari” mavzularida tadqiqotlar o‘tkazgan bo‘lsalar, R.Saydullaeva Shomiyning “Zafarnoma” tarixiy asari onomastikasini o‘rgangan³. Bundan tashqari, tadqiqotchi toponimik birliklarning jadvalini ishlab chiqdi. Biz ortiqcha tafsilotlarga berilmasdan, “Xamsa” dostoni matnidagi toponimik birliklar uchun quyidagi jadvaldan foydalanishni ma’qul ko‘rdik.

¹ Фазлиддинова С.Н. Алишер Навоийнинг “Садди Искандарий” дostonидаги ономастик бирликлар таҳлили.

² Mo‘minova N Temuriylar davri antroponiymasining leksik-semantik xususiyatlari: Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. – Qarshi, 2021. – 145 b. F.Rajabov “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari: Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. – Qarshi, 2022, Saydullaeva R. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari onomastikasi: Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. – Qarshi, 2023.

³ Rajabov F. Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari: Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. avtoref – Qarshi, 2022. – 50 b.



1-jadval

Toponimlarning turlari	Lug‘aviy ma’nosи	“Xamsa” dostonida uchrashi	Misollar
Oronimlar	Yer yuzasining relyef shakllari: tog‘, cho‘qqi, qir, tepa, jarlarga atab qo‘yilgan atoqli otlar.	Vodiyi Hamim –issiq va olovli vodiy nomi.	Debon el “Vodiyi Hamim” otin, Hirkati aylab ani isbotin. (SS)
Oykonimlar	Shahar, viloyat, tuman, qishloq, ovul, mahalla, guzar va shular bilan bog‘liq atoqli otlar	Balx – Xurosondagi shahar va viloyat:	Yana bo‘ldi Luhrasib multk uzra shoh, Ko‘pi Balx erdi onga taxtgoh. (SI)
Xoronimlar	O‘lka, mamlakat ma’nosini ifoda etadi. Ma’muriy jihatdan yirik hisoblangan hududlar, ya’ni viloyat, o‘lka va mamlakatlarning atoqli otlari	Darbast – mamlakat nomi	<i>Aning o‘ldi Taroz ham Darbast,</i> <i>Necha kishvar dag‘i anga payvast</i> (SS)
Astionimlar	Shahar nomlarining atoqli otlari	Bartos/Burtos – Volganing o‘rta oqimidagi xazarlar yashaydigan joy, shahar:	Juvong‘orida erdi Bartosu Rus, Falak xingidek barcha tundu tamus. (SI)
Ekkлизионимлар	Diniy marosimni ado etish uchun to‘planiladigan joylar: masjid, cherkov, monastir va boshqalarning atoqli oti.	Baytul muqaddas – Quddusdagi ziyoratgoh	Agar Zobulistonga soldi futur, Vale Baytulg‘muqaddasga berdi surur. (SI, 1091)
Gidronimlar	Tarixiy gidronimiyada suv havzalari, dengiz, ko‘l, orol, buloq, soy singari obyektlarning atoqli oti o‘rganiladi.	Bahrun-najot – Farhod qazigan hovuz: Aynul-hayot – buloq nomi:	...va “Bahrunkajot” havzin qasr olinda metini xoroshigof bila nomudor qilib. (FSh) Debon «Aynul-hayot» ul chashmani xayl,





			Ki o'lg'on ichsa aylar jon sari mayl. (FSh)
--	--	--	---

Sh.Yoqubov "Navoiy asarlari onomastikasi" nomli tadqiqotida shoirning barcha asrlaridagi onomastik birliklarni qamrab olgan bo'lsa-da⁴, "Xamsa"dagi onomastik birliklar, shu jumladan, toponimlarni ham ma'lum darajada kiritilgan. Tadqiqotchining dissertatsiyasidagi toponimlar qismida berilgan joy nomlari ichida "Xamsa"da uchragan quyidagi toponimlar keltirilgani kuzatildi: *Andalus* (Ispaniya, SI, 668), *Arab* (SI, 788), *Ganja* (FSh, 335), *Rum dengizi* (SI, 811), *Rus yeri* (SI, 651), *Saqlab* (SI, 268), *Sind daryosi* (SI, 669), *Farang* (SI, 668), *Furot* (SI, 713), *Qirim* (SI, 668), *Qoshg'ar* (SI, 696), *Qirvon* (SI, 801). Olim toponimik birliklarni bir necha lug'aviy qatlamlarga ajratib tahlil etadi:

1. Tarixan mavjud bo'lgan nomlar. Yuqorida keltirilgan nomlarning barchasi shunga kiritilgan.

2. Afsonaviy (to'qima) nomlar. Bunga afsonaviy, diniy voqealarni bayonida qo'llanilgan nomlar kiritilgan. Bu gurhga "Xamsa"dagi Salsabil (SI, 713), Saqr (SI, 801), Ravza (SI, 718), kabi. Shuningdek, moddiy borliq bilan bog'liq bo'lgan *Salosid qo'rg'oni* (FSh, 180), *Behishtsaro* (SS, 1091) singari toponimlarni shu guruhga kiritigan.

"Xamsa" dostoni tarkibiga kiruvchi toponimik birliklarni lug'aviy ma'noviy xususiyati asosida quyidagicha izohlashga harakat qilamiz:

XORONIMLAR. Ushbu termin yunon tilidan o'zlashgan bo'lib, *xora* – o'lka, mamlakat ma'nosini ifoda etadi. Ma'muriy jihatdan yirik hisoblangan hududlar, ya'ni viloyat, o'lka va mamlakatlarning nomlari xoronimlar deb yuritiladi. Birgina "Farxod va Shirin"ostonida *Hindiston*, *Armaniston*, *Arabiston*, *Yunoniston*, *Vizantiya*, *Mazandaron* singari mamlakatlar nomi qo'llanilgan. "Xamsa" dostonlaridagi quyidagi xoronimlarning ayrimlarining lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini izohlash bilan cheklanamiz;

Darbast – "Sab'ai sayyor" dostonida mamlakat nomi sifatida keltirilgan.

Aning o'ldi Taroz ham Darbast,

Necha kishvar dag'i anga payvast (SS)

Taroz - "Sab'ai sayyor" dostonida mamlakat nomi sifatida keltirilgan:

Aning o'ldi Taroz ham Darbast,

Necha kishvar dag'i anga payvast (SS)

Gurja – Gruziya davlatining sharqdagi nomi:

Tutub Charkasu Gurja yo'li,

⁴ Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. -Тошкент, 1994.



Bo‘lib barcha gurjuyu charkas quli. (SI)

Charkas – cherkaslar mamlakati, “Saddi Iskandariy” dostoni matnida ushbu nom yuqoridagi shaklda qo‘llanilgan:

Tutub Charkasu Gurja yo‘li,

Bo‘lib barcha gurjuyu charkas quli. (SI)

Gujrat - Hindistondagi viloyat nomi:

Sipohi masun borchcha ofatdin,

O‘tib bandaru mulki Gujratdin (SI)

Xito – Chin (Xitoy) mamlakatinig shimolidagi viloyat nomi, Sintsiziyan yoki Koshg‘ar:

Xabar Bonu sori yetkardi har xayl,

Ki tutdi borchcha Arman mulkini sel (FSh,)

Arman mulki – Armaniston davlati.

ОYKONIMLAR. Aholi yashovchi joylar, maskanlarning atoqli oti oykonimlar deb yuritiladi. Umuman olganda shahar, viloyat, tuman, qishloq, ovul, mahalla, guzar va shular bilan bog‘liq nomlar oykonimlardir. Oykonimlar majmui oykonimiya hisoblanadi. Nomshunoslikning oykonimiyani o‘rganadigan sohasi oykonimika deb yuritiladi. Shahar, qishloq, mahalla, guzar nomlari respublika joy nomlari sistemada eng qadimgi atamalar sanaladi. Tarixiy manbalarda shahar, qishloq nomlari ko‘proq qayd etilgan. Yozma manbalarda uchraydigan va nutqda hozir qo‘llanayotgan nomlar lingvistik, tarixiy-qiyosiy yo‘nalishlarda, tarixiy, geografik, etnografik, adabiy ma’lumotlar asosida tahlil qilingan.

Qiyosiy-tarixiy tadqiq shuni ko‘rsatadiki, eng qadimiylar aholi maskanlarining nomi bir so‘zdan iborat bo‘lgan. Davr o‘tishi bilan bu so‘zga so‘z yasovchi qo‘shimchalar, so‘zlar qo‘shilgan. Shu tariqa yasama nomlar yuzaga kelgan. Nomning asosidagi dastlabki so‘z shu joyning turini ifodalagan. O‘zbekiston aholisi azaldan eroniy va turkiy tilli bo‘lganligi sababli aholi maskani turini anglatuvchi so‘zlar ana shu tillar leksikasiga mansubdir: *kat, kent, diz, gird, xisor, dex, metan, kuran, qasaba, balad, duvon, chim/chem, baliq, qo‘rg‘on, qal‘a, xona, kishloq, qarshi, ovul, obod, chaqar, shahar, guzar, saroy, o‘rda, rabot, man/mayn* va h. Bu so‘zlar nomlar tarkibida tovush va morfema o‘zgarishiga uchragan, ma’nolarida ham o‘zgarishlar yuz bergan. Ayrimlarining ma’nosini unutilgan, iste’moldan chiqib ketgan. Ular nutqda joy nomlari tarkibida saqlanib qolgan. Bu so‘zlar apellyativ leksikada har biri o‘ziga xos ma’noga ega, onomastik leksikada esa ma’nolari bir-biriga yaqin, bir xil funksiyani bajargan, aholi punktlari nomini yasashda “qo‘rg‘on”, “turar joy” ma’nosini bildirgan.

Aholi yashash maskanlari nomini sistema sifatida o‘rganish qishloq nomlarining lingvistik va nolingvistik tabiatini to‘g‘ri talqin etish imkonini beradi. O‘zbekiston oykonimlari analizidan ma’lumki, qishloq nomlarining ma’lum bir qismi tilda dastlab suvloq (*ariq, hovuz, daryo, jilg‘a, quduq*)lar yo relyef turlari (*tog‘, tepa, qir, adir*,

maydon) nomi sifatida yaralgan. Bunday nomlar gidrografik va orografik obyektlarni bildiradi. Onomastik sathda bunday nomlar qayta yasalishga uchragan, nomlarning funksiyasi almashgan. Oykonimlar o‘z navbatida mikro va makrooykonimlarga bo‘linib ketadi.

MIKROOYKONIMIYA - ma’lum bir hududdagi qishloq, mahalla, guzar, go‘sha, yo‘l, ko‘prik kabi kichik obyektlarning nomlaridir. Toshkent shahrida 1000dan ortiq ko‘cha nomlari mavjud. Qarshi shahrida 65 mahalla, 700 dan ortiq ko‘cha nomlari borligini toponomist olim T.Nafasov aniqlagan⁵. Ana shu nomlar mikrooykonimiya hisoblanadi. Ma’lum bir viloyat hududidagi qishloq nomlari ham mikrooykonim deb yuritiladi.

MAKROOYKONIMIYA – respublika, viloyat, shahar, tuman, shaharcha, yirik qishloqlar nomlari makrooykonim deb ataladi. *O‘zbekiston, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo, Andijon, Farg‘ona, Buxoro, Namangan, Sirdaryo, Navoiy, Xorazm, Toshkent, Qoraqalpog‘iston, Xiva, Urganch, Qarshi, Marg‘ilon, Karmana* kabi nomlar makrooykonimlardir. *Guliston* nomi ham makrooykonim, ham mikrooykonim. Viloyat markazi *Guliston* shahar nomi maqomida makrooykonim. Ko‘pgina tumanlarda *Guliston* qishloq nomi sifatida mikrooykonim. Bu tur nomlar onomastik omonimiya sanaladi.

O‘zbek toponimiyasi tizimida antropooykonimlar alohida o‘rinni egallaydi. Ularning tuzilishi, yasalishi o‘ziga xosdir. To‘plangan lisoniy dalillar antropooykonimlarni ikki usul: 1) konversiya 2) kompozitsiya usullari bilan yasalishini ko‘rsatdi.

Konversiya usuli bilan antropooykonimlarning yasalishi deyilganda shaxs ismlarining bevosita joy nomiga ko‘chishi tushuniladi.

Qo‘shma antropooykonimlarda toponimik indikatorlarning kishi ismlaridan oldin kelishi hollari ko‘p uchraydi. Bunda ular grammatik jihatdan tojikcha konstruksiya ko‘rinishida shakllangan bo‘ladi. Masalan Dashti Xasan, Cho‘li Yunus kabi. Ushbu oykonimlar tarkibidagi so‘zlar o‘zaro bir-biri bilan tojikcha izofa ko‘rsatkichi orqali birikkan. Izofa ko‘rsatkichi ba’zi nomlarda tushib qolishi ham mumkin.

Xullas, toponimiyada antropooykonimlarning salmog‘i benihoya katta. Bunday nomlar shaxsning joy (obyekt) bilan aloqadorligi, bog‘liqligi asosida vujudga kelgan. Antropooykonimlarning bir guruhi konversiya yo‘li bilan hosil qilingan bo‘lsa, ko‘pchilik qismi kompozitsiya usuli vositasida yasalgandir.

Biz tadqiq etayotgan “Xamsa” dostonidagi oykonimlarga quyidagilarni misol sifatida keltirish va ularning leksik-semantik xususiyatlarini quyidagicha izohlash mumkin:

⁵ Nafasov T. Qarshi shahar mahalla va ko‘cha nomlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

Bartos/Burtos - Volganing o‘rta oqimidagi xazarlar yashaydigan joy, makon nomi:

Juvong‘orida erdi Bartosu Rus,
Falak xingidek barcha tundu tamus. (SI)

Balx – obodligi va boshqa sifatlari bilan ajralib turuvchi Xurosondagi shahar va viloyat:

Yana bo‘ldi Luhrasib mulk uzra shoh,
Ko‘pi Balx erdi onga taxtghoh. (SI)

Bulbul/Bobul - Iroqdagi qadimiy shahar; Vavilion:

Ham xatlari shohrohi Bobul
Ham kilkida javr chohi Bobul (LM)

Barbari – Afrika sohilidagi shahar, Barbara shahri; Balx viloyatining Hazorajat tog‘idagi qal'a nomi:

Juvog‘orda Marg‘ib –in bir sori,
Yana sori Burtog‘iyu BArbari (SI)

Baxtar – Balxning qadimgi nomi:
Forig‘ o‘lgach budur nisoridin,
Dedikim: Baxtar diyoridin. (SS)

Oykonimlarni toponimist olimlar ikki turga ajratib o‘rganadilar: a) astionimlar, b) komonimlar.

Astionim yunon tilidan o‘zlashgan so‘z bo‘lib, *astos* – shahar ma’nosini ifodalaydi. Shahar nomlarining atoqli otlari astionimlar deb yuritiladi. Yuqorida keltirilgan *Baxtar*, *Barbari*, *Bulbul/Bobul*, *Balx* singari toponimlar astionimlarga kiradi.

Komonim yunoncha so‘z bo‘lib, *komos* – qishloq degan ma’noni ifoda etadi. Demak, qishloq va ovul tipidagi joylarning atoqli oti komonimlar sanaladi. Yuqoridagi misollarimizdan *Bartos/Burtos* komonimdir.

Urbanonimlar ham toponimikaning bir turi sanaladi. Ular quyidagi turlarga bo‘lib o‘rganiladi:

a) *agoronim* – maydon, bozorlarning nomi.

b) *ekklezionim* – diniy marosimni ado etish uchun to‘planiladigan joylar: masjid, cherkov, monastir va boshqalarning atoqli oti. Dostonda quyidagi ekklezonimlar uchradi:

Baytul –muqaddas – Quddusdagi ziyoratgoh:

Agar Zobulistonga soldi futur,
Vale Baytulg‘muqaddasga berdi surur. (SI)

ORONIMLAR. Yer yuzasining relyef shakllari: tog‘, cho‘qqi, qir, tepa, jarlarga atab qo‘ylgan atoqli otlar majmui oronimlar deb nomlanadi.

Oronimiya ma'lum bir tildagi oronimlar majmui, oronimika toponimikaning atoqli otlarning paydo bo'lishi, rivojlanishi va vazifaviy xususiyatlarini lisoniy tamoyillar asosida o'rganadigan bo'limi. Oronimik indikator – yer yuzasidagi relyef bilan bog'liq obyektlarga ularning biror xususiyatiga ishora qiluvchi aniqlagich leksema: *Oqtog'*, *O'rtacho'l*, *Qoraqum*, *O'rtadasht*, *Uchtepa* oronimlaridagi *tog'*, *cho'l*, *qum*, *dasht*, *tepa* leksemalari oronimik indikatorlardir.

Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni matnida ham ko'plab oronimik birliklar qo'llanilgan. Ularning ayrimlarini izohlash bilan cheklanamiz:

Vodiyi Hamim –issiq va olovli vodiy nomi:

Debon el "Vodiyi Hamim" otin,

Hirkati aylab ani isbotin. (SS, 1114)

GIDRONIMLAR. O'zbek gidronimiyasi sohasidagi izlanishlar juda qadimiy va uzoq tarixga ega. Masalan, S.Qorayev o'zining toponimik lug'atlarida toponimlar bilan birga juda ko'plab gidronimlarning ham izohini keltirgan. H.Hasanovning "O'rta Osiyo joy nomlari tarixidan" (1965), "Yer tili" (1977), "Geografik nomlar siri" (1985) kabi bir qancha asarlarida gidronimlar izohi masalasi ham o'rganilgan edi. Masalan, olim *Tuyatortar kanali*, *To'palang daryosi*, *ko'li Xubbon* singari gidronimlarning etimologiyasiga doir qiziqarli dalillarni keltiradi.

"Xamsa" tarkibidagi dostonlar matnida ham bir qator gidronimik birlik qo'llanilgan. Quyida ularning ayrimlarining leksik-semantik xususiyatlarini izohlash bilan cheklanamiz:

Aynul-hayot – "Farhod va Shirin" dostonida buloq nomi sifatida keltirilgan: *Debon "Aynul-hayot" ul chashmani xayl, Ki o'lgan ichsa aylar jon sari mayl. Aynul-hayot* nomi arabcha izofa shaklidagi birlik bo'lib, hayot bulog'i, hayot chashmasi ma'nolarini ifoda etadi.

Afranja – O'rta yer degizining o'rta asrlardagi nomi: *Ki daryoyi Afrajaavu Rum edi, Ki tegrukim, haddi Mashriq edi.* (SI)

<https://www.instagram.com/reel/CrU6IAeqoe9/?igshid=YmMyMTA2M2Y>

=Bahrayn – Fors qo'ltig'idagi orol nomi: *Qutayf ahli, Bahraynu Bag'dod ham, Sipahbad alarg'a kelib Gustaham.* (SI)

Bahrun-najot – Farhod qazigan hovuz nomi: ...va "Bahrun-najot" havzin qasr olinda metini xoroshigof bila nomudor qilib. (FSh)

Darijaz – anhor nomi: *Yana bir alardin Darijaz suyi, Manofi'da ul nav'kim – raz suyi.* (SI)

Duvong – daryo nomi: *Duvong degan suvni oltinchi de, Bilodi Savodin ko'ngil tinchi de.* (SI)

Xulosa sifatida ta'kidlash kerakki, Alisher Navoiyning "Xamsa" dostoni matnida uchraydigan har bir toponimni ilmiy asosda o'rganish o'zbek toponimlari tarixini ochib berishda amaliy ko'mak bera oldi. Shu bois olimlarimiz dostondagi barcha onomastik

birliklarni, shu jumladan toponimlarni tadqiq etishlari kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalardan biridir.

Adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4-tom. – Toshkent, Fan, 1984.
2. Yoqubov Sh. Navoiy asarlari onomastikasi. Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1994. – 24 b.
3. Mo‘minova N Temuriylar davri antroponimiyasining leksik-semantik xususiyatlari: Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. – Qarshi, 2021. – 145b.
4. Nafasov T, Karshi shahar mahalla va ko‘cha nomlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Rajabov F. “Zahiriddin Muhammad Bobur asarlaridagi onomastik birliklarning leksik-semantik va lingvopoetik xususiyatlari: Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. – Qarshi, 2022.
6. Saydullaeva R. Nizomiddin shomiyning “zafarnoma” asari onomastikasi: Fil. fan. bo‘yicha falsafa doktori diss. – Qarshi, 2023.
7. Turdibekov M. “Shajarayi turk” onomastikasi. T., 2020. – 103 b.
8. Fazliddinova S.N. Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostonidagi onomastik birliklar tahlili.
9. Hasanov H. O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan. – Toshkent: Fan, 1965.